

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 199 sahifa.  
2025-yil, 11-oktyabr,

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI .....	12
<b>Quliyev Begimqul Melikovich</b>	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI .....	18
<b>Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna</b>	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI .....	25
<b>Davletova Nilufar Tulanovna</b>	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	30
<b>Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li</b>	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI .....	37
<b>Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna</b>	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI .....	46
<b>Sultanov Dilshod Normamatovich</b>	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	50
<b>Akhmadaliyeva Nikholakhon</b>	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI .....	62
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI .....	68
<b>Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li</b>	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI .....	74
<b>Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich</b>	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI .....	80
<b>O. Nurmuradov</b>	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	85
<b>Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li</b>	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	90
<b>Xuramov Zafar Rajabaliyevich</b>	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI .....	95
<b>Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich</b>	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI .....	99
<b>Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li</b>	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	103
<b>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</b>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI .....	109
<b>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</b>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
<b>Ягудин Дмитрий Рустамович</b>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
<b>NasimdjanoV Yunusjon Zoxidovich</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH .....	129
<b>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</b>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI .....	134
<b>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</b>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
<b>Мансурова Сайёра Бахтияровна</b>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	148
<b>Xolikova Oydin Olimjonovna</b>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI .....	153
<b>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</b>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
<b>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</b>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI .....	166
<b>Suyunov Asror Baxtiyorovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
<b>Z.Teshayev</b>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	176
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH .....	183
<b>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА .....	186
<b>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
<b>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</b>	



# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI

**Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li**

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, dotsent

E-mail: [xaitovoxunjon@samdukf.uz](mailto:xaitovoxunjon@samdukf.uz)

ORCID: 0009-0001-6306-6774

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy asoslari hamda konseptual yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar turizmga xizmat ko'rsatish sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, turizmning innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn platformalar, raqamli marketing va "aqlli turizm" konsepsiyasining o'ri ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqola nazariy konsepsiyalarni umumlashtirish va turizmni raqamlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, raqamli texnologiyalar, innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish, "aqlli turizm", raqamli marketing, onlayn platformalar, hududiy turizm, turizm klasterlari, xizmatlar bozori.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical foundations and conceptual approaches to the development of the tourism sector based on digital technologies. Digital technologies are considered an important tool for improving the quality, efficiency, and competitiveness of services in tourism. The role of information and communication technologies, online platforms, digital marketing, and the concept of "smart tourism" in the innovative development of tourism is also scientifically highlighted. The article aims to generalize theoretical concepts and identify promising areas of tourism digitalization.

**Keywords:** tourism, digital technologies, innovative development, digitalization, "smart tourism", digital marketing, online platforms, regional tourism, tourism clusters, service market.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические основы и концептуальные подходы к развитию туристической сферы на основе цифровых технологий. Цифровые технологии рассматриваются как важный инструмент повышения качества, эффективности и конкурентоспособности туристических услуг. Также научно освещается роль информационно-коммуникационных технологий, онлайн-платформ, цифрового маркетинга и концепции «умного туризма» в инновационном развитии туризма. Целью статьи является обобщение теоретических концепций и выявление перспективных направлений цифровизации туризма.

**Ключевые слова:** туризм, цифровые технологии, инновационное развитие, цифровизация, «умный туризм», цифровой маркетинг, онлайн-платформы, региональный туризм, туристические кластеры, рынок услуг.

## KIRISH

Globalashuv jarayonlari va to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida turizm sohasi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi turizm sohasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy turizm xizmatlarini ko'rsatish shakllari asta-sekinlik bilan raqamli muhitga ko'chmoqda. Natijada onlayn bronlash tizimlari, virtual sayohatlar, mobil ilovalar, elektron xaritalar va raqamli marketing vositalari turizmning zamonaviy infratuzilmasida ajralmas qismga aylanib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojini aniqroq qondirish, vaqt va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonlari turizm subyektlari o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion biznes-modellarni shakllantirish va turizm bozorining global integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, "aqlli turizm" konsepsiyasi turistlarga real vaqt rejimida zarur ma'lumotlarni olish, yo'nalishlarni optimallashtirish hamda qulay va xavfsiz xizmatlardan foydalanish imkoniyatini bermoqda.

Turizmni raqamlashtirish mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ham bevosita ahamiyat kasb etadi. U hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi, kichik va o'rta biznesning faoliyatini kengaytiradi hamda xalqaro raqobatda milliy turizm brendini mustahkamlashga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar asosida turizmni rivojlantirishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqish va uni ilmiy jihatdan asoslash muhim metodologik va amaliy vazifa sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotda turizmni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning konseptual yondashuvlari, asosiy nazariy tamoyillari hamda uning hududiy va milliy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmni raqamlashtirish masalalari bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar bir qator ilmiy ishlar olib borgan. Jumladan, Gretzel, Sigala, Xiang va Koo (2015) o'z tadqiqotida turizmni raqamli texnologiyalarni qo'llash "aqlli turizm" konsepsiyasining shakllanishiga olib kelishini, bu esa xizmat ko'rsatishning interaktiv va innovatsion modelini yaratishini ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, Buhalis va Lawning izlanishlari turizmni raqamlashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning o'rni va uning rivojlanish jarayonidagi transformatsion ta'sirini ochib beradi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar turizmni "tajriba iqtisodiyoti"ga aylantirib, xizmatlarni shaxsiylashtirish imkonini beradi [2].

O'zbekiston olimlari ham so'nggi yillarda turizmni raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratmoqda. Masalan, Raxmonov A. va hamkorlari turizmni elektron xizmatlar, onlayn marketing va virtual turizm texnologiyalarining milliy turizm raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rnini yoritgan [3].

Bundan tashqari, Kozak M. va Baloglu S. turizmni innovatsion yondashuvlar, xususan, onlayn reyting va sharhlarning sayyohlarning qaror qabul qilish jarayoniga kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Bu jihat raqamli platformalarning marketing strategiyasida muhimligini asoslaydi [4].

Mahalliy adabiyotlarda, masalan, Jo'rayev B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar asosida turizm klasterlarini rivojlantirish, elektron xizmatlar samaradorligini oshirish va hududiy turizmni integratsiya qilish masalalari tahlil etilgan [5].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizmni raqamlashtirish konsepsiyasi nazariy jihatdan turli yondashuvlarga tayanadi: "aqlli turizm" modeli, tajriba iqtisodiyoti, innovatsion marketing strategiyalari va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'siri. Bu esa O'zbekiston sharoitida turizmni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqishga ilmiy zamin yaratadi.

Mahalliy adabiyotlarda ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, X.T. Turg'unov iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashda resurslardan oqilona foydalanish va hududiy iqtisodiy siyosatning muhimligini asoslaydi [5]. A.A. Azizov innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanishning asosiy omillari sifatida ko'rsatadi [6]. Sh.J. Qodirov esa barqaror turizm va ekoturizmni hududiy iqtisodiy faollikni oshirishning samarali mexanizmi sifatida baholaydi [7].

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Skandinaviya mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya va yashil texnologiyalar, Germaniyada "Energiewende" dasturi, Janubiy Koreyada innovatsion klasterlar va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish barqaror rivojlanish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilmoqda [8].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda barqaror rivojlanishning nazariy asoslari uchlik modeli (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik)da shakllangan bo'lib, u zamonaviy sharoitda innovatsion va raqamli iqtisodiyot bilan uzviy bog'lanmoqda. O'zbekiston sharoitida bu konsepsiyani tatbiq etish milliy strategiyalar, hududiy dasturlar va xalqaro tajribani uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turizm sohasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy konsepsiyasi va amaliy jihatlarini o'rganish uchun nazariy tahlil, tizimli yondashuv, solishtirma tahlil, statistik tahlil hamda ekspert baholash metodlari qo'llanildi. Ushbu usullar turizmni raqamlashtirishning ilmiy asoslarini yoritish, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoit bilan qiyoslash hamda raqamli texnologiyalarning milliy turizm samaradorligiga ta'sirini baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. "Aqlli turizm" konsepsiyasi bugungi kunda global tendensiyaga aylangan bo'lib, unda mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, elektron xaritalar, virtual ekskursiyalar va raqamli marketing vositalari asosiy tarkibiy qismlarni tashkil qiladi.



Turistlar uchun qulaylik – real vaqt rejimida xizmatlardan foydalanish;

Xizmat ko'rsatuvchilar uchun samaradorlik – xarajatlarni qisqartirish va yangi mijozlar jalb qilish;

Davlat uchun iqtisodiy foyda – turizm sohasidan tushumlarning oshishi va hududiy rivojlanishga hissa qo'shish.

#### 1-rasm. Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari

1-jadvalda keltirilgan yo'nalishlar raqamlashtirish jarayonining turizm sohasiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini ochib beradi. Birinchi navbatda, onlayn bronlash tizimlari xizmatlarni tezkor, qulay va shaffof qilish orqali mijozlarga qo'shimcha vaqt tejash imkonini bermoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning operatsion xarajatlarini qisqartiradi va ularga bozor sharoitida raqobat afzalligi beradi.

Mobil ilovalar turizmga "aqli turizm" konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida maydonga chiqmoqda. Ular real vaqt rejimida ma'lumot olish, yo'nalishlarni aniqlash va xizmatlardan tezkor foydalanish imkoniyatini beradi. Shu bois mobil ilovalar turistlar uchun xizmatlar paketini shaxsiylashtirish va xavfsizlikni oshirish vositasiga aylanmoqda.


#### 1-jadval. Turizmga raqamli texnologiyalar qo'llanishining asosiy yo'nalishlari

Yo'nalishlar	Mazmuni	Kutiladigan natija
Onlayn bronlash tizimlari	Mehmonxona, chipta va xizmatlarni onlayn buyurtma	Xizmatlardan foydalanish tezlashadi
Mobil ilovalar	Turistlar uchun interaktiv ma'lumot va yo'lko'rsatkich	Sayohat jarayoni qulay va xavfsiz bo'ladi
Virtual turizm	3D va VR texnologiyalarda sayohat tajribasi	Mamlakat imiji va marketing samaradorligi oshadi
Raqamli marketing	Ijtimoiy tarmoqlar, reklama platformalari	Turistlar oqimi va hududiy iqtisodiy faollik ortadi
Elektron to'lov tizimlari	Kartalar va mobil to'lovlar orqali xizmatlar	Xizmat ko'rsatishda tezkorlik va shaffoflik

Virtual turizm texnologiyalari turizm marketingining yangi bosqichini belgilab bermoqda. Ular orqali turistlar mamlakat va hududlar bilan virtual tanishadi, bu esa ularda real sayohatga qiziqishni kuchaytiradi. Shu jihatdan, virtual turizm investitsiyalarni jalb qilish va milliy imijni targ'ib etishda muhim innovatsion vosita bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli marketing esa global bozorni qamrab olish imkonini yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar, internet reklama va sharh platformalari orqali turistlar qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatiladi. Natijada marketing samaradorligi oshadi va hududiy turizm raqobatbardoshligi kuchayadi.

Elektron to'lov tizimlari esa moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va xizmatlardan foydalanish tezligini oshirish orqali umumiy turizm infratuzilmasining samaradorligini belgilaydi. Shunday qilib, jadvalda keltirilgan yo'nalishlarning barchasi turizmning zamonaviy modelini shakllantiradi va uni global talablarga moslashtiradi.



2-rasm. Turizmni raqamlashtirishning konseptual modeli

2-rasmda keltirilgan konseptual model turizm sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va ularning bosqichma-bosqich ta'sirini tizimli ravishda ifodalaydi. Modelda turizm tizimi uch asosiy blok orqali ko'rib chiqilgan: raqamli texnologiyalar, turizm faoliyatining natijalari va ijtimoiy-iqtisodiy samaralar.

Birinchi blok – raqamli texnologiyalar. Unga onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, virtual turizm, raqamli marketing va elektron to'lov tizimlari kiradi. Ushbu texnologiyalar turizm xizmatlarini taqdim etish jarayonini zamonaviylashtirish, ularni yanada tezkor, qulay va moslashuvchan qilishga xizmat qiladi. Aslida bu bosqich turizmning raqamli infratuzilmasini shakllantiruvchi asosiy “poydevor” hisoblanadi.

Ikkinchi blok – turizm faoliyatining natijalari. Rasmda ko'rsatilgandek, raqamli texnologiyalar joriy etilishi mijozlar uchun xizmatlarning shaxsiylashtirilishi, foydalanish tezligi va xavfsizligini oshiradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar uchun xarajatlarni optimallashtirish va marketing samaradorligini kuchaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu bosqichda turizm tizimi ichki jihatdan transformatsiyaga uchrab, raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchi blok – ijtimoiy-iqtisodiy samaralar. Ushbu jarayonning yakuniy natijasi sifatida turistlar oqimi ko'payadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va milliy iqtisodiyot uchun qo'shimcha daromad manbai yuzaga keladi. Bundan tashqari, turizm infratuzilmasining modernizatsiyasi hududiy rivojlanish, bandlikni oshirish va xalqaro imijni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, rasmda taqdim etilgan model nafaqat texnologik transformatsiyani, balki turizmning keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini ham ko'rsatib beradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu modelning ahamiyati shundaki, u raqamli transformatsiyani alohida texnologiyalar to'plami sifatida emas, balki butun turizm tizimining kompleks modernizatsiya jarayoni sifatida tasvirlaydi. Shuningdek, model turizm sohasidagi innovatsion rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2-jadval. O'zbekistonda turizmni raqamlashtirish ko'rsatkichlari

Yillar	Onlayn bronlash (%)	Mobil ilovalardan foydalanish (%)	Virtual turizm loyihalari soni	Turizm daromadidagi raqamli xizmatlar ulushi (%)
2019	15	10	2	8
2021	35	25	6	18
2023	55	48	12	32
2024	70	65	20	45



2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'rsatkichlarining so'nggi yillarda sezilarli darajada oshganini ko'rsatmoqda.

2019-yilda onlayn bronlash tizimidan foydalanuvchilar ulushi atigi 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizga yetgan. Bu o'sish mamlakatda internet xizmatlari infratuzilmasi kengaygani, mehmonxonalar va transport xizmatlari sektorida elektron platformalar joriy etilgani bilan bog'liq.

Mobil ilovalardan foydalanish ham keskin oshgan. Agar 2019-yilda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 65 foizga yetgani ko'rinadi. Bu, bir tomondan, aholining raqamli savodxonligi oshayotganini, ikkinchi tomondan esa turizm xizmat ko'rsatuvchi subyektlar mobil yechimlarga katta e'tibor qaratayotganini anglatadi.

Virtual turizm loyihalarining soni 2019-yildagi 2 tadan 2024-yilda 20 taga yetgani ham diqqatga sazovordir. Bu turizm marketingida raqamli texnologiyalar qo'llanilishining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Virtual turizm tashrif buyuruvchilar oqimini oshirish bilan birga, xalqaro turizm bozorida milliy brendni targ'ib etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Turizm daromadida raqamli xizmatlar ulushining 8 foizdan 45 foizga oshishi esa raqamli transformatsiyaning bevosita iqtisodiy samarasini ko'rsatmoqda. Demak, turizm raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilamoqda, balki milliy iqtisodiyot uchun ham qo'shimcha daromad manbai yaratmoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, O'zbekiston turizm sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali qisqa davr ichida sezilarli o'sish natijalariga erishgan. Bu esa raqamlashtirishni strategik darajada yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar turizm sohasining zamonaviy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish, turistlarga qulaylik yaratish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi.

Birinchiidan, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini – virtual turizm, onlayn bronlash, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlarini rivojlantirib, turizm jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ikkinchiidan, raqamlashtirish turistik xizmatlarning shaxsiylashtirilishini ta'minlaydi, bu esa turistlarning qoniqishini oshirib, ularning mamlakatimiz turizmi bo'yicha ijobiy fikrlarini kuchaytiradi.

Uchinchiidan, turizm raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari – turistlar oqimining ko'payishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, hududiy iqtisodiy rivojlanish va mamlakatning xalqaro imijining mustahkamlanishi bilan namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni turizm sohasida keng qo'llash uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida turizmni rivojlantirish nazariy konsepsiyasi nafaqat turizm sohasining innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishida ham muhim o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. (2015). Smart tourism: foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3).
2. Buhalis D., Law R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet. *Tourism Management*, 29(4).
3. Raxmonov A. va boshq. (2021). O'zbekistonda turizmni raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish yo'nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Kozak M., Baloglu S. (2011). *Managing and marketing tourist destinations*. Routledge.
5. Jo'rayev B. (2022). Hududiy turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'ri. Samarqand: SamDU nashriyoti.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)